

ERKIN VOHIDOVNING "RUHLAR ISYONI" DOSTONIDA BOQIYLIK MOTIVI

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish

(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: salimovarayxona00@gmail.com

Annotatsiya: Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonidagi boqiylik motivi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asaridagi boqiylik motivi bilan o'zaro solishtirilib, tahlilga tortildi. Ushbu tahlilda har ikki asar orqali boqiylik mavzusining qanday ifodalanganligi, personajlarning boqiylikka bo'lgan qarashlari ko'rib chiqildi

Kalit so'zlar: doston, boqiylik, motiv, kompozitsiya, tavqi-la'nat, ekspozitsiya, Iso Masih

Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni 1978-1979-yillarda yozilgan. Doston ilk bor "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilib, 1980-yilda kitob shaklida nashr etiladi.

Mazkur asar XX asrning birinchi yarmida yashab o'tgan hind shoiri Nazrul Islomning hayotiga bag'ishlangan. Unda Hindistonni ingliz mustamlakasidan ozod ko'rishni istagan va shu muqaddas kurashga o'z erki va hayotini ham baxshida etgan otashqalb shoirning tutqunlikdagi achchiq qismati, qimatida-da achchiq bo'lgan o'y-xayollari birin-ketin hikoya qilinadi.

"Ruhlar isyoni" dostonida kompozitsion tafakkurning so'z san'atidagi imkoniyatlarini yaqqol kuzatish mumkin. Avval dostonning fasllarga ajratilishi va shu fallarning joylashtirilishi muayyan g'oyaviy maqsadga muvofiq amalga oshirilgan. Har bir faslda Nazrul Islom haqida, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum haqida so'z yuritilib, xuddiki uni dalillash uchun turli rivoyatlar keltiriladi. Rivoyatlar ichida eng xarakterlisi va tahlil talabi "Abadiyat haqida" rivoyatdir. Negaki, unda boqiylik motivi mavjud.

Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir nechta ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir.

Boqiylik tushunchasi esa abadiylik. Yuqoridagi rivoyatda boqiy yashashga hukm qilingan kishi mavjud. Shu jihat bilan u foniy umr ko'ruvchi insonlarga zid qo'yilgan. Asarning ekspozitsiyasi quyidagicha:

Roviy aytar:

Allazamon-

Allaqaysi ma'voda

Falokatga uchrab karvon

Poyoni yo‘q sahroda,
Bu nogahon tasodifdan
Barcha o‘tib dunyodan-
Shu tasodif amri bilan
Omon qoldi bir odam.

Shu odam suvdonini ko‘tarib, suvsizlikdan aziyat cheka boshlaydi va bir chashma yonidan chiqadi. Endi suvdoniga suv to‘ldirmoqchi bo‘lganida suv jonlanadi, u oddiy suv emas, balki obihayot ekanligini, suvdan ichib keyin afsuslanmasligiga ishonchi komilligini so‘raydi. Buloqning inson kabi tilga kirishi xalq og‘zaki ijodi manuna (asosan, ertak) laridagi kabi xarakter kasb etadi. Yo‘lovchi suvni ichishga shoshilmaydi, uni to‘kib ketadi. Sal nariga ketganida yerda tiriklay ko‘milgan insonni ko‘rib hayratlanadi. Bu boqiy inson edi. Uzoq yillar avval chashmadan suv ichgan, natijada, hamma yaqinlari olamdan o‘tgan va o‘zi yolg‘iz qolib, manguulikdan aziyat chekkan "tirik inson qabri"edi.

Mana shunday boqiy inson haqida Isajon Sultonning "Boqiy darbadar"asarida ham hikoya qilinadi. "Ruhlar isyoni" va "Boqiy darbadar"asarlaridagi boqiylik motivining farqli jihatlari ham bor: birinchi asarda mangu yashash uchun sabab bo‘layotgan narsa-buloq suvi; ikkinchi asarda esa tavqi-la‘nat motivi. Muborak zotni qatl uchun olib ketishayotganida uni itarib yuborgan etikdo‘z Iso Masih tomonidan: "Turgin va qiyomatga qadar darbadar kezgin",-deya la‘natlanadi. Natijada, etikdo‘z Iso payg‘ambar ikkinchi marotaba qaytadigan chog‘(qiyomat)ga qadar darbadar yurishga mahkum bo‘ldi. Asar so‘ngida ko‘tarilgan kuchli shamol natijasida hamma narsa vayron bo‘ldi, birorta ham tiriklik alomati qolmadi, ammo yangi paydo bo‘lgan qum uzra bir banda yolg‘iz ketib bormoqda edi. " U baland bo‘yli, uzun sochlari yelkasiga tushgan yalangoyoq bir odam edi".

Qarg‘ish motivi yana bir nechta asarlarda mavjud: "Darbadar yahudiy", "Qadimgi dengizchi", "Uchuvchi daniyalik" va boshqalar. Burrovs, Lapedes va Shovkrossning fikricha, la‘natlangan obrazlar, asosan, jinoyatchi, begona rollarini bajaradilar va ular bizning ongimiz va ongsizligimiz tarkibiga aylangan.

"Ruhlar isyoni"da insoniyat sabriga qo‘yilgan haykal bor:

So‘ngra qumga cho‘kdi behol,
Rahmat aytdi sabriga.
O‘z holiga ming shukr etdi,
Yig‘ib so‘nggi sabotni-
Qum ustiga to‘kib ketdi
Yo‘lchi obihayotni.

Rivoyatda chinor daraxti nima sababdan uzoq yashashining sababiga ham izoh berilgan. Yo‘lovchi obihayotni ichmasdan yerga to‘kkanida bir cho‘l niholi bu suvdan bahramand bo‘lib qoladi. Yillar o‘tib shu nihol chinor bo‘ldi:

Shundan chinor uzoq yashar,

Shundan chayir tanlari.

Yo'lovchi manguilik suvini yerga to'kib ketgan hamono bashariyat manguilikni emas,"foniyl umr tanladi".

Xulosa qilib aytganda, bu dunyoning yarmi rohat, qolgan yarmi esa g'amdan iborat. Ammo inson har qanday holatdan ham hikmat izlay bilishi kerak.Yozuvchi:

"Umring uzun bo'lsa - rahmat,

Agar kamdir shukr qil", -deya rivoyatning xulosasini beradi. Ko'rinib turibdiki, dostonidagi boqiy yashovchi kishining manguilik haqidagi fikrlari ijobiy emas.Chunki uning yaqinlari, suhbatdoshlari, zamondoshlari allaqachon olamdan o'tib ketgan. Shu bilan qahramon ham hayotining mazmunini yo'qotgan. Muallif yuqoridagi rivoyat bilan har bir kun, peshonamizga yozilgan umrdan nolinmasdan, shukr qilish kerakligini ta'kidlaydi. Zero, baxillik bo'lmasa saxiylilikning, g'am bo'lmasa shodlikning, qarilik bo'lmasa yoshlikning, o'lim bo'lmasa tiriklikning qadriga yetmas edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vohidov E.Ruhlar isyoni.G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,Toshkent:1980.
2. Xurshid Davron kutubxonasi https://kh_davron.uz/
3. I.Sulton.Boqiy darbadar."Sharq yulduzi"2010-yil,6-son
4. Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.Noshir,Toshkent:2019.
5. Burrows,Lapides va Shawcross.Myths and motifs in literature.Free Press,New York:1973.